



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

O'zbekiston Professional futbol ligasi

TARTIB-INTIZOM KODEKSI

Mundarija

I Bo'lim	Umumiy qoidalar	6
1-bob	Asosiy qoidalar	6
1-modda	Asosiy qoidalar	6
2-bob	Intizomiy jazo choralari qo'llash vakolatiga ega organlar	6
2-modda	Qoidabuzartliklarni ko'rib chiqishga vakolatli organlar	6
3-modda	Qo'mita maqomi	7
4-modda	Qo'mita faoliyatining tashkil etilishi	7
5-modda	Qo'mita a'zosiga xizmat uchun haq to'lash	8
6-modda	Qo'mita mustaqilligi	8
7-modda	Konfidensiallik	8
3-bob	Qoidabuzartliklar	9
8-modda	Qoidabuzartlik tushunchasi	9
9-modda	Qoidabuzartliklar majmui	9
10-modda	Qoidabuzartlikni sodir etishga urinish	9
11-modda	Qoidabuzartlikda ishtirokchilik	10
4-bob	Intizomiy jazo choralari	10
12-modda	Intizomiy jazo choralari tushunchasi	10
13-modda	Jismoniy shaxsga nisbatan qo'llanadigan intizomiy jazo choralari	10
14-modda	Yuridik shaxsga nisbatan qo'llanadigan intizomiy jazo choralari	11
15-modda	Jarima	11
16-modda	Ogohlantirish	12
17-modda	Chetlatish	13
18-modda	Diskvalifikatsiya	14
19-modda	Tomoshabinlarning stadionning tegishli sektorlariga kirishini taqiqlash	14
20-modda	Uchrashuvni boshqa stadionda o'tkazish	15
21-modda	Texnik mag'lubiyat yozish	15
5-bob	Intizomiy jazo choralari qo'llashning umumiy qoidalari	15
22-modda	Intizomiy jazo choralari qo'llashning umumiy prinsiplari	15
23-modda	Bir nechta intizomiy jazo choralari qo'llash	16
24-modda	Qoidabuzartliklar majmui uchun intizomiy jazo choralari qo'llanishi	16
25-modda	Shartli ravishda yengilroq intizomiy jazo choralari qo'llash	17
26-modda	Intizomiy jazo choralari keyingi mavsumga o'tkazilishi	17
27-modda	Intizomiy jazo choralari qo'llanishining belgilangan muddati	17
28-modda	Tomoshabinlarning xulq-atvori uchun javobgarlik	18
6-bob	Intizomiy jazo choralari ijro etilishi	18
29-modda	Intizomiy jazo choralari ijro etish majburiyati	18
30-modda	Intizomiy jazo choralari ijro etilmagani uchun javobgarlik	18
7-bob	Qo'mita tomonidan ish ko'rilishining umumiy qoidalari	19
31-modda	Muddatlarni hisoblash	19
32-modda	Protessual muddatlarni o'tkazib yuborishning oqibatlari	19
33-modda	Protessual muddatlarni tiklash va uzaytirish	20
34-modda	Qo'mita majlislarida ishtirok etish huquqi	20
35-modda	Majlisda qatnashishga taklif qilish	21
36-modda	Qo'mita bilan hamkorlik qilish majburiyati	21
37-modda	Vakillik	21
38-modda	Ish yuritish tili	22
39-modda	Qaror matnidagi xatolarni tuzatish	22
40-modda	Ish bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar	22
41-modda	Sarf va xarajatlar	22
8-bob	Dalillar va isbotlash	23
42-modda	Dalillar tushunchasi va ularning turlari	23
43-modda	Dalillarning baholanishi	23
44-modda	Uchrashuv qaydnomasi va Rasmiy shaxslarning bildirgilari	23
45-modda	Isbotlash	23
9-bob	Qo'mita qarorlari	24
46-modda	Qarorni qabul qilish	24
47-modda	Qarorning mazmuni	24

48-modda	Qarorning kuchga kirishi	24
49-modda	Qarorni e'lon qilish	25
50-modda	Qarorlarni tegishli shaxslarga jo'natish	25
10-bob	Qo'mita qarorlari ustidan shikoyat berish	25
51-modda	Apellyatsiya shikoyati berish huquqi	25
II Bo'lim	Maxsus qism	
11-bob	Uchrashuv davomida yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar	27
52-modda	O'yin qoidalarining buzilishi	27
53-modda	Klubning Uchrashuvga kelmasligi	27
54-modda	Uchrashuv boshlanishining kechiktirilishi	27
55-modda	Uchrashuvni davom ettirishdan bosh tortish	27
56-modda	Maydonda begona shaxslar va hayvonlarning paydo bo'lishi	28
57-modda	Texnik zona chegaralaridan tashqariga chiqish	28
58-modda	Bosh murabbiy vazifasi klubning boshqa Rasmiy shaxsi tomonidan bajarilishi	28
59-modda	Texnik zonada tamaki chekish	28
60-modda	Texnik zonada begona shaxslarning bo'lishi	29
61-modda	Uchrashuv davomida maydonda kechayotgan hodisalarga aralashish	29
62-modda	Uchrashuv davomida futbolchilar va boshqa shaxslarga qarshi sodir etilgan qoidabuzarliklar	29
63-modda	Uchrashuv rasmiylariga nisbatan sodir etilgan qoidabuzarlik	30
64-modda	Sportchiga xos bo'lmagan xulq-atvor	31
65-modda	Mushtlashuv	31
66-modda	Jamoaviy noma'qul xulq-atvor	31
67-modda	Musobaqa Reglamenti talablariga xilof ravishda Uchrashuvda ishtirok etish	31
68-modda	Provokatsiya orqali tomoshabinlarni nojo'ya harakatlarga undash	32
69-modda	Jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlamaslik	32
70-modda	Uchrashuvning to'xtatilishi	32
12-bob	Uchrashuvni tashkil qilish talablari va Kodeks qoidalarining buzilishi	33
71-modda	Uchrashuv boshlanadigan vaqt to'g'risida ma'lumot taqdim etish muddatlariga rioya qilmaslik	33
72-modda	Tashkiliy yig'ilishda qatnashmaslik	33
73-modda	Uchrashuvni o'tkazish uchun sharoitlarni ta'minlamaslik	33
74-modda	Matbuot anjumani va majburiy flesh-intervyularda qatnashmaslik	33
75-modda	Futbolchining mikst-zonadan o'tishini ta'minlamaslik	34
76-modda	Videoyozuvni taqdim etmaslik	34
77-modda	Reglament talablarini bajarmaslikning boshqa holatlari	34
13-bob	Uchrashuv tomoshabinlari tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar	34
78-modda	Tomoshabinlarning haqoratli so'zlar va iboralarni baland ovozda birgalikda baqirishi	34
79-modda	Tomoshabinlarning tribunalarga, maydonga va maydonga tutash hududga predmetlarni otishi	34
80-modda	Tomoshabinlarning pirotexnika buyumlarini ishlatishi va otishi	35
81-modda	Stadiondagi tartibsizliklar	35
82-modda	Tomoshabinlar tomonidan qonunchilik hujjatlarida taqiqlangan, haqoratli tusga ega vizual tashviqot vositalari namoyish etilishi	36
14-bob	Futbolni boshqarish tartibiga qarshi qoidabuzarliklar	36
83-modda	Hujjatlarni qalbakilashtirish va qalbaki hujjatlardan foydalanish	36
15-bob	Shikoyatlarni ko'rib chiqish	36
84-modda	Nizolarni ko'rib chiqish mexanizmi	36
16-bob	Yakuniy qoidalar	37
85-modda	Yakuniy qoidalar	37
86-modda	Kodeksning rasmiy talqin qilinishi	37
87-modda	Mazkur Kodeksni tasdiqlash va unga o'zgartishlar kiritish	38

To'liq va qisqa nomlar — atamalar ta'rifi

Boshqaruv

FIFA	Xalqaro futbol federatsiyalari assotsiatsiyasi
IFAB	Xalqaro futbol assotsiatsiyalar kengashi
OFK	Osiyo futbol konfederatsiyasi
O'FA	O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi (Assotsiatsiya)
PFL	O'zbekiston professional futbol ligasi (Liga)
FHM	O'zbekiston futbol hakamlari markazi (Markaz)
O'FU	O'zbekiston futbolchilari uyushmasi (Uyushma)
HA	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy assotsiatsiyalari
VAR	Video yordamchi hakam
Qo'mita	Liga qoshidagi Tartib-intizom qo'mitasi

Ishtirokchi

Professional klub	OFK litsenziyasini qo'lga kiritgan klub
FJ	Professional klub qoshida tashkil etilgan farm jamoa
FA	Futbol akademiyasi
FM	Futbol maktabi

Musobaqa

Superliga	O'zbekiston klublari ishtirokidagi oliy toifali musobaqa
U21 chempionati	Superliga klublarining 22 yoshgacha bo'lgan futbolchilari o'rtasida o'tkaziladigan birinchi raqamli musobaqa
U19 chempionati	Superliga va Proliganing 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilari o'rtasida o'tkaziladigan birinchi raqamli musobaqa
Uchrashuv	Musobaqa doirasida o'tkaziladigan rasmiy o'yin

Rasmiy

Komissar	Liga tomonidan Uchrashuvning tashkil etilishi va o'tkazilishini nazorat qilish uchun tayinlangan shaxs
Nazoratchi	Markaz tomonidan tayinlangan va uchrashuv davomida hakamlarni baholab boradigan shaxs
Hakam	Markaz tomonidan IFAB futbol o'yini qoidalarini va tartibga soluvchi boshqa hujjatlarga muvofiq uchrashuvni nazorat qilish va boshqarish uchun tayinlangan shaxs
Stadion rasmiysi	Uchrashuv o'tadigan stadion uchun javobgar shaxs
Klub rasmiysi	Klub uchun javobgar bo'lgan hamda Liga ro'yxatidan o'tgan futbolchidan tashqari istalgan shaxs
Uchrashuv rasmiylari	Hakam, Nazoratchi hamda Komissar
Xavfsizlik uchun mas'ul	Ichki ishlar, Milliy gvardiya yoki FVV xodimi, shuningdek, klubning xavfsizlik bo'yicha ofitseri, stadion styuardi
Legioner	O'zbekiston klubiga ishlash uchun taklif etilgan chet ellik sportchi
Xorijiy mutaxassis	O'zbekiston klubiga ishlash uchun taklif etilgan xorij fuqarosi
Subyekt	Klub, futbolchi, murabbiy yoki Rasmiy shaxsning umumiy ta'rifi hisoblanib, u qo'llangan holatda yuqoridagilarning biri, ayrimlari yoki barchasi nazarda tutilishi mumkin. Ushbu so'z qo'llangan holatga qarab birlik yoki ko'plikni anglatishi mumkin

Boshqalar

Uchrashuv davomida	Uchrashuvdan oldin, Uchrashuv vaqtida va Uchrashuvdan keyingi davr
Mavsum qaydnomasi	Liga ro'yxatidan o'tkazilgan futbolchilar orasidan mavsum davomida Musobaqada ishtirok etishi mumkin bo'lgan futbolchilar ro'yxati
Uchrashuv qaydnomasi	Mavsum qaydnomasida mavjud futbolchilar orasidan Uchrashuvda ishtirok etish uchun saralab olingan futbolchilar ro'yxati
Litsenziya	Musobaqada ishtirok etish huquqini beruvchi hujjat
Akkreditatsiya	Musobaqa o'tkaziladigan joyda faoliyat olib borish huquqini beruvchi hujjat
Texnik zona	Atamalar lug'atining Rasmiy bo'limida ko'rsatilgan shaxslar begona shaxslar bilan to'qnash kelmaydigan stadion hududi
Texnik o'rindiq	Uchrashuv qaydnomasidan joy olmagan Klub rasmiysi hamda futbolchisi uchun tribunada ajratilgan maxsus joy
XTS	Xalqaro transfer sertifikat
MyLeague	Liga Musobaqa o'tkazishda foydalanadigan onlayn platforma
Mavsum	Kalendar yili doirasidagi Musobaqa vaqtini o'z ichiga olgan davr. Bu davr birinchi uchrashuv kunidan boshlanadi va oxirgi uchrashuv kuni bilan yakunlanadi.

UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

UMUMIY QOIDALAR

1-bob. Asosiy qoidalar

1-modda

Asosiy qoidalar

1. Kodeks Liga tomonidan o'tkaziladigan musobaqalarda subyekt tomonidan sodir etilgan qoidabuzarliklar uchun intizomiy jazo choralari belgilovchi me'yoriy hujjat hisoblanadi.

2. Kodeks Qo'mita tomonidan subyekt uchun intizomiy jazo choralari qo'llash uchun asos hisoblanadi.

3. Qo'mita qarorlari subyekt, Musobaqaning boshqa ishtirokchilari, shuningdek, Uchrashuv o'tkaziladigan sport inshootlari uchun majburiy hisoblanadi.

4. Qo'mita Liga Ijroiya qo'mitasi oldida hisobdordir.

5. Kodeks qonuniylik, tenglik, insonparvarlik, odillik va ayb uchun javobgarlikning muqarrarlari prinsiplariga asoslanadi.

2-bob. Intizomiy jazo choralari qo'llash vakolatiga ega organlar

2-modda

Qoidabuzarliklarni ko'rib chiqishga vakolatli organlar

1. Qoidabuzarliklarni quyidagi ketma-ketlikda vakolatli organlar ko'rib chiqadi:

- PFL Tartib-intizom qo'mitasi;
- O'FA Tartib-intizom qo'mitasi;
- O'FA Apellyatsiya qo'mitasi.

Musobaqa doirasidagi qoidabuzarliklar Qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi. Qo'mita qarori ustidan yozilgan apellyatsiya shikoyati O'FA Tartib-intizom qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Bunda, uchinchi instansiya O'FA Apellyatsiya qo'mitasi hisoblanadi.

2. Apellyatsiya shikoyatida da'vogar o'zi norozi bo'lgan qarorga nisbatan e'tirozini asoslantirilgan tartibda bayon qilishi talab etiladi. Qo'mita qaroridan norozi bo'lingan taqdirda, apellyatsiya shikoyati qaror yuborilgan vaqtdan keyingi 48 soat ichida O'FA Tartib-intizom qo'mitasiga oshirish uchun Ligaga taqdim etiladi.

Quyidagilar ko'rib chiqilmaydi:

- belgilangan muddatda kiritilmagan shikoyat yoki e'tirozlar;
- Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilmagan masalalar;
- subyekt e'tirozi bayon etilgan Apellyatsiya shikoyati uchun pullik to'lov ikki ish kuni ichida amalga oshirilmagan Apellyatsiya shikoyati.

3. Apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqish belgilangan to'lov asosida amalga oshiriladi. To'lov Liga hisob raqamiga o'tkaziladi. Da'vogarning arizasi qisman yoki to'liq qanoatlantirilgan taqdirda, u tomondan amalga oshirilgan to'lov qaytariladi.

Apellyatsiya shikoyati uchun pullik to'lov 3 000 000 (uch million) so'mni tashkil qilib, mazkur to'lov belgilangan muddat ichida Liga hisob-raqamiga amalga oshirilganidan so'ng, ish ko'rib chiqish uchun O'FA Tartib-intizom qo'mitasiga oshiriladi.

3-modda **Qo'mita maqomi**

1. Qo'mita Uchrashuv davomida stadionda subyekt tomonidan sodir etilgan qoidabuzarliklarni ko'rib chiquvchi Liga organi hisoblanadi.

Qo'mita mazkur Kodeksda nazarda tutilgan qoidabuzarliklar sodir etilgani uchun intizomiy jazo choralari qo'llash vakolatiga ega instansiya hisoblanadi. U intizom chorasini qo'llayotganda qoidabuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda ish yuritishga haqli.

2. Qo'mita subyekt tomonidan Kodeks va Reglamentda belgilangan talablarni bajarmaslik, uning harakat yoki harakatsizligi oqibatida vujudga keladigan qoidabuzarliklarni ko'rib chiqadi va unga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llaydi.

3. Mazkur Kodeksda nazarda tutilgan holatlarni ko'rib chiqishda subyektni Musobaqadan chetlatish, ochkolardan mahrum qilish, Uchrashuv natijasini bekor qilish, olti va undan ortiq o'yin yoki ikki oydan uzoq muddatga chetlatish, Uchrashuvni tomoshabinlarsiz o'tkazish, shuningdek, boshqa turdagi og'ir intizomiy choralarni qo'llash zarurati vujudga kelsa, ish O'FA Tartib-intizom qo'mitasiga oshiriladi.

4-modda **Qo'mita faoliyatining tashkil etilishi**

1. Qo'mita besh kishidan iborat tarkibda Liga Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi. Uning a'zolari Klubda faoliyat olib bormayotgan sobiq futbolchi, murabbiy, bevosita hakamlar sohasida faoliyat olib borgan mutaxassis, Liga mutaxassisi, futbol jurnalisti yoki sharhlovchisi bo'lishi mumkin.

2. Qo'mita yig'ilishi Liga talabiga muvofiq belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

3. Qo'mita raisi:

- Qo'mita ishiga rahbarlik qiladi;
- Qo'mita yig'ilishi bayoni va qarorini imzolaydi;
- Qo'mita yig'ilishlarida ishtirok etish imkoniyati bo'lmaganda, o'z vakolatini Qo'mita a'zolaridan biriga topshiradi.

4. Qo'mita ish faoliyatini tashkil qilish va ta'minlash Qo'mita kotibi zimmasiga yuklatiladi. Kotib Qo'mita yig'ilishi uchun tegishli materiallarni tayyorlaydi, yig'ilish sanasi haqida Qo'mita a'zolarini xabardor qiladi.

Qo'mita kotibida ovoz berish huquqi mavjud emas.

5. Qo'mita yig'ilishida a'zolarining kamida uch nafari ishtirok etishi lozim. A'zo ovoz berishda betaraf bo'lishga haqli emas.

6. Qo'mita yig'ilishining qarorlari yozma ko'rinishda bayonlashtiriladi. Yig'ilish bayonnomasi rais yoki uning vakolatini bajarayotgan shaxs tomonidan imzolanadi.

Qo'mita yig'ilishi bayonnomasining ko'chirma nusxasi Kotib tomonidan imzolanadi hamda tegishli Klubga yuboriladi. Qo'mita qarorlari Liga rasmiy saytida e'lon qilinadi.

7. Qoidabuzarliklarni Qo'mita yig'ilishida ko'rib chiqish uchun quyidagilar asos bo'lib xizmat qiladi:

- Uchrashuv qaydnomasi;
- Komissar bildirgisi;
- Hakam bildirgisi;
- Nazoratchi bildirgisi;
- Uchrashuv videoyozuvi;
- Assotsiatsiya, Liga, Klub, HA rahbarining murojaati;
- OAV yoki ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan materiallar;
- talab qilingan yoki taqdim etilgan boshqa hujjatlar.

8. Qo'mita yig'ilishi kun tartibiga qo'yilgan masalalarni batafsil ko'rib chiqish va hal qilish uchun zarur barcha hujjatlarni so'rash va olishga, zarur maslahatlarni olish uchun tegishli mutaxassislarni jalb qilishga, zarurat tug'ilsa, Qo'mita yig'ilishiga ish bilan bog'liq tegishli shaxslarni chaqirishga haqlidir.

9. Qo'mita manfaatdor tomonlarni tinglamay turib, mavjud materiallarga asoslangan holda ularning ishtirokisiz qaror qabul qilishga haqli.

5-modda

Qo'mita a'zosiga xizmat uchun haq to'lash

1. Qo'mita a'zosiga xizmati uchun haq (moddiy rag'batlantirish) to'lanishi mumkin. To'lov miqdori va uni to'lash tartibi Liga tomonidan belgilanadi.

6-modda

Qo'mita mustaqilligi

1. Qo'mita qarorlarni mustaqil qabul qiladi.

2. Qo'mita yig'ilishi davomida ushbu Qo'mita a'zosi, kotib va Qo'mita taklif etgan shaxslardan boshqa subyektning bo'lishiga ruxsat berilmaydi.

7-modda **Konfidensiallik**

1. Qo'mita a'zosi va kotibi o'z vazifasini bajarish davomida olingan har qanday ma'lumotni (shu jumladan, ishga taalluqli holat va faktlar, muhokama mazmuni va mundarijasi, shaxsiy ma'lumotlar va hokazo) oshkor qilishga haqli emas.

2. Qo'mita qarorlarini saqlash Liga zimmasiga yuklanadi.

3. Qo'mita qarorlari qabul qilingan kundan boshlab besh yil davomida saqlanadi va belgilangan tartibda arxiv yuritiladi.

3-bob **Qoidabuzarliklar**

8-modda **Qoidabuzarlik tushunchasi**

1. Mazkur Kodeksga binoan intizomiy jazo chorasini qo'llash nazarda tutilgan Reglament, O'yin qoidalariga rioya qilmaslik, Assotsiatsiya yoki Liga rahbar organlari hujjatlarida belgilangan talablarni bajarmaslik (harakat yoki harakatsizlik) qoidabuzarlik sifatida tan olinadi.

Qoidabuzarlik sodir etilgan vaqtda Klub o'z tarkibida bo'lgan futbolchi, murabbiy va Rasmiy shaxs uchun javobgar subyekt sifatida qaraladi. Mazkur Kodeksda tavsiflangan alohida holatlar bundan mustasno.

2. Qoidabuzarlikni ataylab yoki ehtiyotsizligi sababli sodir etgan subyekt qoidabuzarlik sodir etishda aybdor deb hisoblanadi.

Subyektda intizomiy jazo chorasi ko'zda tutilgan qoida va normalarga rioya qilish imkoniyati bo'la turib, ularga rioya qilish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni qo'llanmagani aniqlansa, subyekt qoidabuzarlik sodir etishda aybdor deb topiladi.

Mazkur Kodeksda boshqa holatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, qoidabuzarlik ataylab yoki ehtiyotsizlik sababli sodir etilganidan qat'i nazar, subyektga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llaniladi.

9-modda **Qoidabuzarliklar majmui**

1. Qat'iyroq intizomiy jazo choralari qo'llanilishini taqozo etadigan ikki yoki undan ko'p qoidabuzarliklarning sodir etilishi qoidabuzarliklar majmui deb qabul qilinadi. Bunda, qoidabuzarliklarni sodir etgan subyektlarga nisbatan har bir qoidabuzarlik uchun Kodeksning tegishli moddasi bo'yicha alohida intizomiy jazo chorasi qo'llaniladi.

Bir harakat yoki vaziyat Kodeksning bir nechta moddalarini buzishga olib kelsa ham u Qoidabuzarliklar majmui sifatida talqin qilinadi.

10-modda

Qoidabuzarlikni sodir etishga urinish

1. Subyekt tomonidan bevosita qoidabuzarlikka qaratilgan, lekin mazkur subyektga bog'liq bo'lmagan sabablar tufayli qoidabuzarlik oxirigacha yetkazilmagan bo'lsa, mazkur harakat qoidabuzarlik sodir etishga urinish sifatida tan olinadi.

Qoidabuzarlik sodir etishga urinishga nisbatan javobgarlik ushbu moddaga havola qilish orqali mazkur Kodeksda oxiriga yetkazilgan qoidabuzarlik uchun ko'zda tutilgan moddaga muvofiq intizomiy jazo choralari belgilanadi. Bunda, holatni ko'rib chiqishda Qo'mita ko'zda tutilgan intizomiy jazo chorasini kamaytirishga haqli. Biroq belgilangan intizomiy jazo chorasi Kodeksda nazarda tutilgan minimal miqdordagi intizomiy jazo chorasidan kam bo'lmasligi lozim.

Mazkur moddani qo'llashda qoidabuzarlik subyekt tomonidan o'z ixtiyoridan tashqari yoki ongli ravishda yakuniga yetkazilmaganini inobatga olinadi.

11-modda

Qoidabuzarlikda ishtirokchilik

1. Qoidabuzarlik sodir etishda ikki va undan ko'p subyektning qasddan, birgalashib qatnashishi qoidabuzarlikda ishtirokchilik deb tushuniladi. Shundan kelib chiqib, qoidabuzarlik sodir etishda ijrochi, tashkilotchi, vositachi yoki sherik sifatida ishtirok etuvchi subyektlarning barchasiga intizomiy jazo chorasi qo'llaniladi.

2. Tegishli qoidabuzarlikda qatnashmay turib, lekin shu qoidabuzarlikka ko'maklashgan subyektga ham ushbu qoidabuzarlik tashkilotchisi, vositachisi yoki qoidabuzarlik sodir etganlarning sherigi sifatida intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi mumkin.

3. Qo'mita mazkur moddada nazarda tutilgan qoidabuzarliklarni ko'rib chiqishda uning tashkilotchisi, vositachisi yoki sherigiga nisbatan ko'zda tutilgan intizomiy jazo chorasini kamaytirishga haqli. Bunda, belgilanadigan intizomiy jazo chorasi Kodeksda ko'zda tutilgan minimal miqdordagi intizomiy jazo chorasidan kam bo'lmasligi lozim.

4-bob

Intizomiy jazo choralari

12-modda

Intizomiy jazo chorasi tushunchasi

1. Musobaqa yaxlitligini saqlash maqsadida, subyektning shu Musobaqa davomidagi harakati yoki harakatsizligini tartibga solish uchun unga nisbatan mazkur Kodeks, O'yin qoidalari, Reglament va boshqa hujjatlarga muvofiq qo'llaniladigan sanksiya intizomiy jazo chorasi deb tushuniladi.

13-modda

Jismoniy shaxsga nisbatan qo'llanadigan intizomiy jazo chorasi

1. Jismoniy shaxsga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llanishi mumkin:

- ogohlantirish;
- jarima;
- o'yinda ishtirok etishdan diskvalifikatsiya qilish;
- Texnik zonaga kirishni taqiqlash.

14-modda

Yuridik shaxsga nisbatan qo'llanadigan intizomiy jazo chorasi

1. Yuridik shaxsga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llanishi mumkin:

- ogohlantirish;
- jarima;
- tomoshabinlarni stadionning ma'lum sektorilariga kiritishni taqiqlash;
- Uchrashuvni boshqa stadionda o'tkazish;
- Klubga nisbatan texnik mag'lubiyat yozish.

15-modda

Jarima

1. Jarima qoidabuzarlik uchun subyektga Qo'mita tomonidan pul ko'rinishida qo'llanadigan intizomiy jazo chorasi hisoblanadi. Jarima o'zbek so'mida belgilanadi va to'lanadi.

2. Qarorga nisbatan mazkur Kodeksga muvofiq Apellyatsiya shikoyati berilmagan bo'lsa, Qo'mita qarori bilan qo'llangan jarima qaror Klubga yuborilgan kundan boshlab o'ttiz kun ichida to'lanishi lozim. Apellyatsiya qo'mitasi qaroridan keyin ham subyektga jarimani to'lash majburiyati saqlanib qolsa, u holda jarima yangi qaror Klubga yuborilgan kundan boshlab o'ttiz kun ichida to'lanishi kerak.

3. Qoidabuzarlikda aybdor deb topilgan subyekt jismoniy shaxs bo'lsa, Klub ushbu jismoniy shaxs jarima to'lashi uchun subsidiar javobgar hisoblanadi.

4. Qoidabuzarliklar uchun jarimalar miqdori mazkur Kodeks va uning 1-ilovasida ko'rsatilgan. Jarima qo'llashda subyekt ishtirok etayotgan Musobaqa toifasiga e'tibor beriladi.

5. Jarimaning aniq miqdori Qo'mita tomonidan qoidabuzarlik turiga mutanosib ravishda, uni sodir etgan subyektning muqaddam qoidabuzarlik sodir etgani, qoidabuzarlikning takroriy sodir etilishi, qoidabuzarlik sodir etishning sabablari hamda intizomiy jazo chorasini yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar, ish bilan bog'liq boshqa ahamiyatli holatlar, shuningdek, subyektning aybdor shaxslarni aniqlashda hamkorlik qilishini hisobga olgan holda belgilanadi.

6. Kodeksda jarimaning maksimal miqdori belgilanmasa, Qo'mita mazkur moddani hisobga olgan holda, jarima miqdorini mustaqil belgilashga haqlidir.

7. O'zbekiston kubogi Uchrashuvida sodir etilgan qoidabuzarliklar uchun jarimalar
Mazkur Kodeksga Ilovada Superliga Uchrashuvida sodir etilgan qoidabuzarlik uchun qo'llanadigan jarima miqdorida belgilanadi.

16-modda **Ogohlantirish**

1. Ogohlantirish O'yin qoidalariga muvofiq, subyektga nisbatan Uchrashuv davomida
Hakam tomonidan qo'llanadigan intizomiy jazo chorasi hisoblanib, u sariq kartochka ko'rsatish bilan ifodalanadi.

2. Subyektga Uchrashuv davomida ikki bor sariq kartochka ko'rsatilsa, bu uning
Uchrashuvdan chetlatilishiga sabab bo'ladi hamda subyekt avtomatik ravishda bitta Uchrashuvga diskvalifikatsiya qilinadi.

3. Uchrashuv davomida ko'rsatilgan ikkita sariq kartochka Uchrashuvdan chetlatish
uchungina xizmat qiladi va shu kungacha hisoblab kelinayotgan sariq kartochkalarning umumiy hisobiga qo'shilmaydi.

Agar subyekt Uchrashuvdan to'g'ridan to'g'ri chetlatilsa, shu Uchrashuv davomida chetlatishgacha olingan ogohlantirish sariq kartochkalarning umumiy hisobiga qo'shiladi.

4. Sariq kartochkalarning umumiy hisobidan kelib chiqqan holda qo'llaniladigan
diskvalifikatsiyada quyidagilar inobatga olinadi:

- subyektning Superliga, Proliga, Birinchi liga, U19 va U21 Chempionatida olgan sariq kartochkalari soni to'rttaga yetsa, u avtomatik ravishda shu Musobaqa va uning mantiqiy davomi bo'lgan ehtimoliy pley-off o'yinlari doirasidagi navbatdagi Uchrashuvdan diskvalifikatsiya qilinadi;

- subyektning O'zbekiston kubogi va tegishli Musobaqaning pley-off Uchrashuvida olgan sariq kartochkalari soni ikkitaga yetsa, u avtomatik ravishda shu Musobaqaning (shu jumladan, O'zbekiston kubogining yarim final Uchrashuvi va o'tish o'yinlari ham) navbatdagi Uchrashuvidan diskvalifikatsiya qilinadi;

- O'zbekiston kubogining yarim final bosqichiga yetib kelgan hamda tegishli Musobaqaning pley-off bosqichida ishtirok etadigan subyektning shu Musobaqadagi sariq kartochkalar hisobi mazkur band bo'yicha chegaraviy miqdorga yetmagan bo'lsa, u holda ushbu hisob nolga tenglashtiriladi;

- Superkubok va o'tish o'yinlarida olingan ogohlantirishlar sariq kartochkalar hisobini yuritishda tatbiq qilinmaydi.

5. Uchrashuv biror sababga ko'ra yakunlanmay qolib, uni boshqa vaqtda yakunlash
haqida qaror qabul qilingan bo'lsa, shu Uchrashuv davomida olingan ogohlantirishlar saqlanib qoladi.

6. Kartochkalar hisobini yuritishda quyidagi holatlar inobatga olinadi:

- Uchrashuv qayta o'tkazilishi bo'yicha qaror qabul qilingan bo'lsa, shu Uchrashuv davomida olingan sariq kartochkalar bekor qilinadi;

- Klublardan biri yoki har ikkisiga texnik mag'lubiyat yozilishi haqida qaror qabul qilinsa, shu Uchrashuv davomida olingan sariq kartochkalar saqlanib qoladi.

7. Klub biror sabab tufayli Musobaqa qatnashchilari safidan chiqib ketsa, subyekt tomonidan olingan sariq kartochkalar bekor qilinadi.

8. Sariq kartochkalar hisobi faqatgina shu Musobaqa uchun taalluqli hisoblanadi. Biroq mavsumning so'nggi Uchrashuvida ogohlantirilishi oqibatida sariq kartochkalari hisobi chegaraviy miqdorga yetgan futbolchi kelgusi mavsumda Liga shafeligidagi qaysi Musobaqada ishtirok etishidan qat'i nazar bitta Uchrashuvni o'tkazib yuboradi.

9. Sport mavsumi davomida olingan sariq kartochkalar soni chegaraviy miqdorga yetmagan bo'lsa, ular keyingi sport mavsumiga ko'chirilmaydi.
Sanksiyalar bundan mustasno.

17-modda **Chetlatish**

1. Chetlatish O'yin qoidalariga muvofiq Hakam tomonidan qo'llanadigan intizomiy jazo chorasi hisoblanib, subyektga qizil kartochka ko'rsatilishi oqibatida uning Texnik zonadan chetlatilishni anglatadi.

2. Qizil kartochka keyingi Uchrashuvdan avtomatik tarzda diskvalifikatsiya qilinishga sabab bo'ladi. Mazkur Kodeksda ko'zda tutilgan holatlarda Qo'mita diskvalifikatsiya muddatini uzaytirishi mumkin.

3. Qizil kartochka yakunlanmagan yoki natijasi bekor qilingan Uchrashuv davomida qo'llangan bo'lsa ham, subyekt keyingi Uchrashuvdan avtomatik tarzda diskvalifikatsiya qilinadi.

4. Superliga, O'zbekiston kubogi, U21 Chempionati Uchrashuvida qizil kartochka olish oqibatida maydondan chetlashtirilgan futbolchi shu Musobaqalar doirasidagi keyingi Uchrashuvni o'tkazib yuboradi. Bunda, Superliga va U21 Chempionatining bir tur doirasidagi Uchrashuvlari yaxlit bir Uchrashuv deb hisoblanadi.

Mazkur band bo'yicha U19 Chempionatining diskvalifikatsiya muddati faqat shu Musobaqaga tatbiq etiladi.

5. Mazkur moddaning 4-bandi bo'yicha ikki marotaba sariq kartochka olishi oqibatida yoki yaqqol gol urish imkoniyatidan mahrum qilishi tufayli maydondan chetlashtirilgan futbolchi avtomatik ravishda bitta Uchrashuvni, to'g'ridan to'g'ri qizil kartochka olish oqibatida maydondan chetlashtirilgan futbolchi esa kamida ikki Uchrashuvni o'tkazib yuboradi.

6. Mavsumning so'nggi Uchrashuvida ikki marotaba sariq kartochka olishi oqibatida yoki yaqqol gol urish imkoniyatidan mahrum qilishi tufayli maydondan chetlatilgan

futbolchi kelgusi mavsumda Liga shafeligidagi qaysi Musobaqada ishtirok etishidan qat'i nazar bitta Uchrashuvni o'tkazib yuboradi.

7. O'FA Tartib-intizom qo'mitasi tomonidan diskvalifikatsiya qilingan futbolchi mazkur muddatni o'tamaguniga qadar Liga shafeligidagi hech bir Musobaqada ishtirok eta olmaydi.

18-modda **Diskvalifikatsiya**

1. Diskvalifikatsiya intizomiy jazo chorasi hisoblanib, Qo'mita tomonidan qo'llanadi (avtomatik diskvalifikatsiya holatlari bundan mustasno) va Musobaqadan ma'lum muddatga chetlatish ko'rinishida ifodalanadi.

2. Diskvalifikatsiya futbolchi, murabbiy yoki Rasmiy shaxsga nisbatan qo'llaniladi.

3. Diskvalifikatsiya qilingan subyekt Uchrashuv qaydnomasiga va Uchrashuv davomida Texnik zonaga kiritilmaydi.

4. Diskvalifikatsiya bir nechta Uchrashuv yoki muayyan muddatga tayinlanadi.

5. Dopingga qarshi qoidalar buzilishi va kelishilgan o'yinlar bilan bog'liq ishlar tegishli tartibda O'FA Tartib-intizom qo'mitasi yoki O'FA Etika qo'mitasiga oshiriladi.

6. Umumiy qoida sifatida, diskvalifikatsiya Uchrashuvlar soni bo'yicha qo'llangan bo'lsa, uning amal qilishi muddati faqat o'tkazib yuborilgan Uchrashuvlar hisobi bo'yicha yuritiladi.

Diskvalifikatsiya qilingan futbolchi qatnashgan Uchrashuvda raqib Klub Musobaqadan chetlatilsa yoki unga texnik mag'lubiyat yozilsa, mazkur moddada belgilangan qoidadan istisno tariqasida, mazkur Uchrashuv diskvalifikatsiyaning amal qilish hisobiga kiritiladi.

7. Joriy Mavsumda muddati o'tib ulgurmagan diskvalifikatsiya keyingi Mavsum uchun ham amal qiladi.

8. Diskvalifikatsiyasi mavjud subyektning Liga shafeligida o'tayotgan Musobaqa doirasida boshqa Klubga o'tishi diskvalifikatsiyaning amal qilishi jarayoniga to'siq bo'lmaydi.

9. Klub biror sababga ko'ra Musobaqa qatnashchilari safidan chiqib ketsa, shu Klub a'zolarining barcha diskvalifikatsiyalari saqlanib qoladi.

10. Mazkur Kodeksda tavsiflangan alohida holatlarda avtomatik diskvalifikatsiyaning kuchga kirishi uchun Qo'mita qarori talab etilmaydi.

Subyektga nisbatan avtomatik diskvalifikatsiyadan tashqari Qo'mita tomonidan ham diskvalifikatsiya intizomiy jazo chorasi qo'llansa, dastavval Qo'mita tomonidan qo'llangan intizomiy jazo chorasi o'taladi.

19-modda

Tomoshabinlarning stadionning tegishli sektorlariga kirishini taqiqlash

1. Tomoshabinlarning stadionning tegishli sektorlariga kirishini taqiqlash Qo'mita tomonidan qo'llanadigan intizomiy jazo chorasi hisoblanib, Klub zimmasiga uy stadionidagi tegishli Uchrashuvda muayyan sektorlarga chipta sotmaslik hamda tomoshabinlarni (ayollar, 12 yoshgacha bolalar bundan mustasno) shu sektorga kiritmaslik majburiyatini yuklaydi.

Qo'mita ushbu intizomiy jazo chorasi qo'llanadigan sektorni belgilash huquqiga ega.

2. Qo'mita ushbu intizomiy jazo chorasi tegishli stadiona o'tkaziladigan nechta Uchrashuvda qo'llanishini belgilaydi.

20-modda

Uchrashuvni boshqa stadiona o'tkazish

1. Uchrashuvni boshqa stadiona o'tkazish Qo'mita tomonidan qo'llanadigan intizomiy jazo chorasi hisoblanib, Klub zimmasiga uy Uchrashuvni Liga ro'yxatidan o'tgan boshqa stadiona o'tkazish majburiyatini yuklaydi.

2. Uchrashuvni boshqa stadiona o'tkazish bo'yicha intizomiy jazo chorasi qo'llangan Klub, Uchrashuvning Reglament talabiga javob beradigan stadiona o'tkazilishi uchun javobgardir.

3. Qo'mita mazkur intizomiy jazo chorasini qo'llashda Klubning boshqa stadiona o'tkazadigan Uchrashuvlari sonini belgilaydi. Mazkur intizomiy jazo chorasi Qo'mita qarorida belgilangan sanadan amalga oshiriladi.

21-modda

Texnik mag'lubiyat yozish

1. Texnik mag'lubiyat yozish Qo'mita tomonidan qo'llanadigan intizomiy jazo chorasi hisoblanib, uning oqibatida o'tkazilgan Uchrashuv natijasi bekor qilinadi va tegishli Klubga 0:3 yoki mazkur Kodeks, O'yin qoidalari, Reglamentda ko'zda tutilgan boshqa hisob bilan mag'lubiyat yoziladi.

Uchrashuv o'tkazilmagan bo'lsa, uning natijasini bekor qilmay turib tegishli Klubga 0:3 hisob bilan texnik mag'lubiyat yoziladi.

2. Tegishli Klubga texnik mag'lubiyat yozilganda shu Uchrashuv davomida subyektga nisbatan qo'llangan barcha intizomiy jazo choralari saqlanib qoladi.

Intizomiy jazo chorasini qo'llashning umumiy qoidalari

22-modda

Intizomiy jazo chorasini qo'llashning umumiy prinsiplari

1. Qoidabuzarlik sodir etgan shaxsga mazkur Kodeksning tegishli moddasida ko'zda tutilgan chegaralarda adolatli jazo chorasi belgilanadi.

2. Vaziyat mazkur Kodeksning tegishli moddalarida ko'zda tutilgan jazoga nisbatan og'irroq intizomiy jazo chorasi qo'llanishini taqozo etsa, ish O'FA Tartib-intizom qo'mitasiga oshiriladi.

3. Intizomiy jazo choralari qo'llashda Qo'mita quyidagilarni inobatga oladi:

- qoidabuzarlik turi va uning jiddiylik darajasini;
- qoidabuzarlikni sodir etgan subyekt va javobgar subyekt avvalroq qoidabuzarlik sodir etmaganini;
- qoidabuzarliklar tizimli ravishda sodir etilishini;
- qoidabuzarlik sodir etilishining sabablarini;
- yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni;
- Qo'mita fikriga ko'ra, intizomiy jazo choralari qo'llanishi uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni.

4. Yumshatuvchi va og'irlashtiruvchi holatlar Qo'mita tomonidan belgilanadi.

5. Uchrashuv tomoshabinlari tomonidan sodir etilgan qoidabuzarliklar uchun intizomiy jazo choralari qo'llashda quyidagilar hisobga olinadi:

- intizomiy jazo chorasi qo'llanayotgan Klubning tomoshabinlar tomonidan qoidabuzarliklar sodir etilmasligiga qaratilgan ishlari (Klub buni isbotlab berishi kerak);
- qoidabuzarliklar oldini olish bo'yicha Klub harakatlari;
- Klubning aybdorlar shaxsini aniqlash va belgilashdagi ishtiroki;
- Klubning qoidabuzarlarni aniqlash va ma'muriy yo'l bilan ushlab turishda huquq-tartibot organlariga yordam ko'rsatish bo'yicha harakatlari;
- qoidabuzarlik oqibatida jabrlanganlar yoki zarar ko'rganlarning mavjudligi.

23-modda

Bir nechta intizomiy jazo choralari qo'llash

1. Mazkur Kodeksda ko'zda tutilgan holatlarda bir qoidabuzarlik uchun Qo'mita tomonidan bir vaqtning o'zida bir nechta intizomiy jazo choralari qo'llanishi mumkin.

24-modda

Qoidabuzarliklar majmui uchun intizomiy jazo choralarining qo'llanishi

1. Qoidabuzarliklar majmui yuzaga kelgan holatlarda subyekt har bir qoidabuzarlik uchun mazkur Kodeksning tegishli moddasi bo'yicha javobgar bo'ladi.

2. Qoidabuzarliklar majmui yuzaga kelgan holatlarda intizomiy jazo choralari yengilroq intizomiy jazo choralarini og'irrog'iga almashtirish yoki qo'llanilgan intizomiy jazo choralarini qisman qo'shish orqali qo'llanadi.

3. Yengilroq intizomiy jazo choralarini og'irrog'iga almashtirish, shuningdek, qo'llanilgan intizomiy jazo choralarini qisman qo'shish faqat bir turdagi intizomiy jazo chorasiga nisbatan qo'llanishi mumkin.

25-modda

Shartli ravishda yengilroq intizomiy jazo chorasini qo'llash

1. Qo'mita ko'rilayotgan ish mohiyatidan kelib chiqib, og'irrog' intizomiy jazo chorasini yengilroq intizomiy jazo chorasiga almashtirish mumkinligi haqida xulosaga kelsa, subyektga nisbatan shartli ravishda yengilroq intizomiy jazo chorasini qo'llashi mumkin.

2. Yengilroq intizomiy jazo chorasini shartli ravishda qo'llashda mazkur Kodeksning 22-moddasida sanab o'tilgan barcha omillar, shu jumladan, qoidabuzarlikning tusi va xavflilik darajasi inobatga olinadi.

3. Shartli ravishda yengilroq intizomiy jazo chorasiga tortilgan subyekt sanksiyani o'tash vaqtida sinov muddatida hisoblanib, shu muddat ichida u qoidabuzarliklarga qaytda yo'l qo'ymayotganligini o'zining xulq-atvori bilan isbotlashi lozim.

4. Sinov muddati davomida subyekt intizomiy jazo chorasini qo'llashga olib keluvchi qoidabuzarlikni yana sodir etsa, Qo'mita navbatdagi sanksiyani qo'llashda buni og'irlashtiruchi holat sifatida ko'rib chiqadi.

7. Dopingga qarshi qoidalar buzilgan holatlarda shartli intizomiy jazo choralarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

26-modda

Intizomiy jazo chorasining keyingi mavsumga o'tkazilishi

1. Kodeksning 16, 17, 18 va 19-moddalarida ko'rsatilgan intizomiy jazo chorasini joriy mavsum davomida to'liq qo'llashga ulgurilmasa, uni o'tash majburiyati keyinga mavsumga o'tkaziladi.

27-modda

Intizomiy jazo chorasi qo'llanishining belgilangan muddati

1. Subyektga nisbatan muddati o'tib ketgan intizomiy jazo chorasining qo'llanishiga yo'l qo'yilmaydi.

2. Intizomiy jazo chorasini qo'llash muddatlari quyida keltirilgan tartibda boshlanadi:

- qoidabuzarlik sodir etilgan kundan boshlab;
- qoidabuzarliklar majmui so'nggi qoidabuzarlik sodir etilgan kundan boshlab;

- avvalgi intizomiy jazo chorasini o'tayotgan subyekt uchun mazkur jazo chorasini o'tab bo'lingan kundan boshlab.

3. Umumiy qoida sifatida, Uchrashuv qaydnomasiga kiritilmagan shikoyat ko'rib chiqilmaydi. Biroq Ekspert hakamlar komissiyasi xulosasi yoki boshqa asoslantirilgan dalillar yuzaga chiqqan taqdirda, Qo'mita ishni ko'rib chiqishi mumkin.

28-modda

Tomoshabinlarning xulq-atvori uchun javobgarlik

1. Mezbon Klub stadiondagi tomoshabinlarning xulq-atvori uchun javobgardir. Mazkur moddaning 2-qismida ko'rsatilgan holat bundan mustasno.

2. Mezbon Klub tomonidan mehmon Klub tomoshabinlariga ajratilgan sektorlardagi tartib-intizom uchun mehmon Klub javobgardir.

3. Mezbon Klub ajratib bergan sektorlardagi tomoshabinlar mehmon Klub tomoshabinlari deb hisoblanadi. Subyektning asosli dalil bilan mazkur tomoshabinlar guruhi qaysi Klubga tegishli ekanligini isbotlovchi holatlar bundan mustasno.

6-bob

Intizomiy jazo chorasining ijro etilishi

29-modda

Intizomiy jazo chorasini ijro etish majburiyati

1. Qo'mita qarorini ijro etish majburiyati u qo'llangan subyekt zimmasiga yuklatiladi. Mazkur Kodeksda ko'zda tutilgan alohida holatlar bundan mustasno.

2. Qarorni ijro etish majburiyati Qo'mita qarori kuchga kirgan kundan boshlanadi.

3. Qo'mita qarori bilan jismoniy shaxsga nisbatan qo'llangan jarimani to'lash majburiyati shu shaxsning o'ziga yuklatiladi. Klub jismoniy shaxs tomonidan jarima to'lanishi uchun mazkur Kodeksga muvofiq subsidiar javobgar hisoblanadi.

30-modda

Intizomiy jazo chorasini ijro etilmagani uchun javobgarlik

1. Intizomiy jazo chorasini ijro etilmagani uchun mazkur Kodeksda ko'zda tutilgan javobgarlik yuzaga keladi.

2. Uchrashuvda Klub tarkibida diskvalifikatsiya, Uchrashuvdan chetlatish yoki futbol bilan bog'liq har qanday faoliyatni amalga oshirishiga taqiq ko'rinishidagi intizomiy jazo choralari qo'llangan futbolchi qatnashsa, Qo'mita Klubga nisbatan texnik mag'lubiyat intizomiy jazo chorasini qo'llashi mumkin.

Subyekt diskvalifikatsiya, Uchrashuvdan chetlatish yoki futbol bilan bog'liq har qanday faoliyatni amalga oshirishiga taqiq ko'rinishidagi intizomiy jazo choralari ijro etmasa (masalan, diskvalifikatsiya qilingan subyekt Uchrashuv davomida Texnik zonada harakatlansa), Klub yoki subyektga nisbatan Kodeks va Reglament asosida intizomiy jazo chorasi qo'llanishi mumkin.

3. Jarima belgilangan muddatda to'lanmasa, Liga to'lanmagan har bir kun uchun jarima miqdoriga 0,4 foiz qo'shimcha penya undirishga haqli. Biroq bu miqdor kechiktirilgan jarima miqdorining ellik foizidan ko'p bo'lmasligi kerak.

4. Ushbu moddada ko'rsatilmagan boshqa holatlarda subyekt intizomiy jazo chorasini ijro etmasa, Qo'mita unga nisbatan quyidagi qarorlardan birini qo'llashga haqli:

- Kodeksda ko'zda tutilgan maksimal miqdordan ko'p bo'lmagan summada jarima solish;
- avvalroq tayinlangan intizomiy jazo choralari miqdorini mazkur ko'rsatkich ikki barobardan oshmasligi shartida ko'paytirish;
- Kodeksda ko'zda tutilgan yanada qat'iyroq intizomiy jazo chorasini qo'llash.

7-bob

Qo'mita tomonidan ish ko'rilishining umumiy qoidalari

31-modda

Muddatlarni hisoblash

1. Mazkur Kodeksda ko'zda tutilgan muddatlar Uchrashuvlar soni, kunlar va oylar ko'rinishida hisoblanishi mumkin.

2. Kunlar va oylar bilan belgilanadigan muddatning o'tishi uning boshlanishini belgilab beruvchi sana yoki hodisadan boshlab hisoblanadi.

3. Oylar bilan hisoblangan muddat o'sha oyning tegishli sanasida yakunlanadi. Agar oylar bilan hisoblangan muddatning yakunlanishi tegishli sanasi bo'lmagan oyga to'g'ri kelsa, muddat ushbu oyning so'nggi kunida yakunlanadi.

4. Ijro uchun muayyan belgilangan protsessual harakat muddatning so'nggi kunida soat 23:00 gacha amalga oshirilishi mumkin.

Tegishli hujjat muddatning so'nggi kunida soat 23:00 gacha pochta orqali tashkilotga topshirilgan bo'lsa, muddat o'tkazib yuborilmagan hisoblanadi.

5. Agar protsessual harakat bevosita Qo'mita joylashgan manzilda amalga oshirilishi belgilangan bo'lsa, o'rnatilgan qoidalarga ko'ra, muddat Ligada ish kuni yakunlangan soatda tugaydi.

32-modda

Protsessual muddatlarni o'tkazib yuborishning oqibatlari

1. Protsessual harakatlarni amalga oshirish huquqi mazkur Kodeks bilan belgilangan yoki Qo'mita tomonidan belgilangan protsessual muddat yakunlangandan keyin tugatiladi.

2. Protsessual muddat yakunlangandan keyin berilgan shikoyatlar yoki hujjatlar, agar o'tkazib yuborilgan protsessual muddatlarni tiklash to'g'risida iltimosnoma taqdim etilmagan bo'lsa, Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

33-modda

Protsessual muddatlarni tiklash va uzaytirish

1. Mazkur Kodeks bilan belgilangan muddat Qo'mita asosli deb tan olgan sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan bo'lsa, bu muddat tegishli subyekt uchun tiklanishi mumkin.

2. O'tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash to'g'risidagi ariza Qo'mitaga taqdim etiladi va uning yig'ilishida ko'rib chiqiladi. Ishga aloqador subyektlar yig'ilish o'tkaziladigan joy va vaqt haqida xabardor qilinadi, biroq ularning yig'ilishda bo'lmasligi Qo'mita oldiga qo'yilgan masala yuzasidan qaror qabul qilinishi uchun to'siq bo'lmaydi.

3. O'tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash to'g'risidagi ariza berilishi bilan bir vaqtda muddati o'tkazib yuborilgan protsessual harakat ham (shikoyat berish, hujjatlarni taqdim etish) bajarilishda davom etishi kerak.

4. Qo'mita belgilagan protsessual muddat Qo'mita qarori bilan uzaytirilishi mumkin.

34-modda

Qo'mita majlislarida ishtirok etish huquqi

1. O'ziga nisbatan ish yuritilayotgan subyekt Qo'mita majlislarida ishtirok etishi va ushbu moddaning 2-qismida ko'rsatilgan barcha protsessual huquqlardan foydalanishi mumkin. Qo'mita ushbu shaxsning majlisda ishtirok etishiga monelik qilishga haqli emas.

2. Unga nisbatan ish qo'zg'atilgan subyekt Qo'mita tomonidan shu ish ko'rib chiqilayotganda:

- o'ziga tegishli ish materiallari bilan tanishib chiqish, shu jumladan, ulardan ko'chirma va nusxalar olish;
- o'z tushuntirishlari va izohlarini berish;
- ish materiallariga havola berish;
- o'z argumentlari va dalillarini taqdim etish;
- isbot-dalillarni ko'rsatishni talab qilish;
- majlisga taklif etilgan shaxslarga savollarini berish;
- biror masala bo'yicha muayyan shaxslarga rad javobini berish huquqiga ega.

3. Subyektning Qo'mita majlisida ishtirok etmasligi qabul qilingan qarorning qonuniy kuchga ega bo'lishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

4. Guvohlar, mutaxassislar va ayblanuvchi subyektlar Qo'mita majlislarida onlayn videoaloqa ko'rinishida ishtirok etishi mumkin.

35-modda

Majlisda qatnashishga taklif qilish

1. Qo'mita zarur hollarda shaxsga majlisda ishtirok etish majburiyatini yuklashi mumkin. Bunday holatlarda ishi ko'rilayotgan subyektga elektron pochta orqali xabarnoma jo'natiladi. Klub a'zolariga xabarnomalar shu Klubning elektron pochtasiga yuboriladi.

2. Qo'mita majlisiga chaqirilib, asosli sababsiz unda ishtirok etmagan shaxsga nisbatan 15 000 000 (o'n besh million) so'mgacha miqdorda jarima ko'rinishidagi intizomiy jazo chorasi qo'llanishi mumkin.

36-modda

Qo'mita bilan hamkorlik qilish majburiyati

1. Ko'rilayotgan ishga aloqador bo'lgan har qanday shaxs ishning barcha jihatlarini aniqlashtirish maqsadida Qo'mita bilan hamkorlik qilishi, shu jumladan, Qo'mita so'roviga ko'ra zarur hujjatlar, materiallar, videoyozuvlar, tushuntirish xatlari va boshqa ma'lumotlarni taqdim etishi lozim.

Hujjatlar, materiallar, videoyozuvlar, tushuntirish xatlari va boshqa ma'lumotlarga so'rov berishda Qo'mita tegishli muddatni belgilaydi. Hujjatlar va tushuntirish xatlari Qo'mitaga elektron pochta orqali yoki shaxsan topshirilishi mumkin.

2. Qo'mita bilan hamkorlik qilishdan bo'yin tovlayotgan, shu jumladan, so'rov bo'yicha zarur hujjatlar, materiallar, videoyozuvlar, tushuntirish xatlari va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmagan shaxsga nisbatan 15 000 000 (o'n besh million) so'mgacha miqdorda jarima ko'rinishidagi intizomiy jazo chorasi qo'llanishi mumkin.

3. Subyekt Qo'mita bilan hamkorlik qilishni rad etsa va zarur ma'lumotlarni olishning boshqa usuli bo'lmasa, Qo'mita ko'rilayotgan ish bo'yicha qarorni mavjud materiallarga asoslanib qabul qilishi mumkin.

37-modda

Vakillik

1. Jismoniy shaxs Qo'mita tomonidan ishni ko'rib chiqishda shaxsan o'zi yoki vakili orqali ishtirok etishi mumkin. Ishdagi shaxsiy ishtiroki jismoniy shaxsni o'z vakiliga ega bo'lish huquqidan mosuvo qilmaydi.

Zarur hollarda Qo'mita jismoniy shaxsning yig'ilishda shaxsan ishtirok etishini talab qilish huquqiga ega.

2. Yuridik shaxs Qo'mita tomonidan ishni ko'rib chiqishda yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz harakat qilish huquqiga ega bo'lgan yoki ishonchnoma asosida harakat qiluvchi shaxs orqali qatnashadi.

3. Jismoniy shaxs tomonidan beriladigan ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi shart, o'z a'zosi manfaatlarini himoya qiluvchi jamoat birlashmalari bundan mustasno.

Yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma tashkilot rahbari yoki shunday vakolatga ega boshqa shaxsning imzosi va shu tashkilotning muhri bilan tasdiqlanadi.

38-modda **Ish yuritish tili**

1. Qoidabuzarlikdan kelib chiqadigan ishlarni yuritish o'zbek tilida olib boriladi. Qo'mitaga taqdim etiladigan barcha hujjatlar o'zbek tilida bo'lishi kerak. Hujjat xorijiy tilda taqdim etilgan bo'lsa, Qo'mita lozim topgan hollarda uni bergan shaxs notarial tartibda tasdiqlangan tarjimani ham taqdim etishi lozim.

2. O'zbek tilini bilmaydigan shaxs Qo'mita lozim topgan hollarda yig'ilishga tarjimon jalb qilishi zarur.

39-modda **Qaror matnidagi xatolarni tuzatish**

1. Ish bo'yicha qaror qabul qilingandan keyin shu ish bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar sabab ishni qayta ko'rish istisno qilinganda, Qo'mita qarorni bekor qilish yoki o'zgartirishga haqli emasdir.

2. Qo'mita o'zining tashabbusi yoki manfaatdor shaxslarning arizasiga ko'ra qaror matnida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishi mumkin. Qo'mita tomonidan qabul qilingan qaror matnidagi xatolarni tuzatish masalasi qo'mita yig'ilishida ko'rib chiqiladi.

40-modda **Ish bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar**

1. Subyekt ish bo'yicha avvalroq taqdim etishning imkoni bo'lmagan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etsa va bu Qo'mita tomonidan qabul qilingan qarorga sezilarli o'zgartirishlar kiritilishiga sabab bo'lsa, ish qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin.

2. Ishni qayta ko'rib chiqish talabi qayta ko'rish uchun asos deb tan olingan faktlar aniqlangan kundan boshlab besh kun mobaynida Qo'mitaga taqdim etiladi.

41-modda **Sarf va xarajatlar**

1. Qo'mita faoliyati bilan bog'liq xarajatlar Liga tomonidan qoplanadi.

42-modda
Dalillar tushunchasi va ularning turlari

1. Dalillar — bu shunday ma'lumotlarki, ularga asoslangan holda Qo'mita ish uchun ahamiyatli hisoblangan holatlar mavjud yoki mavjud emasligini belgilaydi va qaror qabul qiladi.

2. Dalillar sifatida quyidagilar qabul qilinadi:

- Hakam, yordamchi hakam, Komissar va Nazoratchining bildirgilari;
- Uchrashuv qaydnomasi yoki bayonnomasi;
- o'ziga nisbatan ish yuritilayotgan shaxs, shuningdek, guvohlar va boshqa shaxslarning arizalari va tushuntirishlari;
- audio va videoyozuvlar, fotosuratlar;
- mutaxassislarning xulosalari va tushuntirishlari;
- ish yuzasidan ahamiyatli hisoblangan boshqa hujjatlar;
- ashyoviy dalillar.

Qo'mita tashkil qilgan videoaloqa vaqtida ishda qatnashayotgan shaxslar va muhokamaning boshqa ishtirokchilari tomonidan berilgan tushuntirishlarni ham dalil sifatida qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

3. Ishga aloqador bo'lmagan dalillardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

43-modda
Dalillarning baholanishi

1. Qo'mita dalillarni baholashda ishning barcha holatlarini birlashtirib, har tomonlama to'liq va obyektiv ko'rib chiqish natijasida kelib chiqqan xulosalarga asoslanadi. Hech qanday dalil Qo'mita uchun avvaldan belgilangan kuchga ega emas.

44-modda
Uchrashuv qaydnomasi va Rasmiy shaxslarning bildirgilari

1. Uchrashuv qaydnomasi va Rasmiy shaxs bildirgisidagi har qanday ma'lumot dalillar orqali isbotlanmagan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

2. Qo'mita qoidabuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishda Uchrashuv qaydnomasi va Rasmiy shaxs bildirgisidagi ma'lumotlar ishonchsizligi haqidagi dalillarni o'rganib chiqadi va qoidabuzarlikni sodir etgan subyektning aybini aniqlashda ularni inobatga oladi.

45-modda
Isbotlash

1. Qoidabuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishda Qo'mita dalillarni yig'adi va ularga asoslangan holda subyektning aybdor yoki beayb ekani haqida qaror qabul qiladi.

2. Qoidabuzarlikni sodir etgani uchun ishi ko'rilyotgan subyekt va boshqa manfaatdor shaxslar o'zlari keltirgan faktlarni isbotlashi kerak.

9-bob **Qo'mita qarorlari**

46-modda **Qarorni qabul qilish**

1. Qaror Qo'mita tomonidan yig'ilishda qatnashayotgan a'zolarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

2. Ovoz berishda Qo'mitaning yig'ilishda qatnashayotgan har bir a'zosi ishtirok etadi. Sirtan ovoz berishga va ishonchnoma asosida ovoz berishga yo'l qo'yilmaydi. Ovozlar soni teng bo'lgan holatlarda raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

47-modda **Qarorning mazmuni**

1. Qo'mita qarorida quyidagilar ko'rsatiladi:

- Qo'mitaning yig'ilishda qatnashayotgan a'zolari va kotib;
- ishi ko'rilayotgan subyekt;
- sodir etilgan qoidabuzarlikning qisqacha bayoni;
- Qo'mita foydalangan Kodeks yoki normativ hujjatlardagi holatlarga havola;
- qaror ustidan shikoyat berish tartibi;
- jarima ko'rinishidagi intizomiy jazo chorasi qo'llangan hollarda jarimani to'lash muddati.

2. Qaror Qo'mita raisi va kotib (kotib yig'ilishda qatnashmagan bo'lsa, faqat rais) tomonidan imzolanadi.

48-modda **Qarorning kuchga kirishi**

1. Qo'mita qarori ishi muhokama qilingan subyekt ushbu qarordan ko'chirma olgan kun yoki ushbu qaror tegishli Liga rasmiy saytida e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Bunda, yuqoridagilardan qay biri birinchi amalga ohsa, hisob shu vaqtdan e'tiboran yuritiladi.

2. Qo'mita qarori bo'yicha berilgan shikoyatni ko'rib chiqishda o'ziga nisbatan stadion sektorlariga kirishni cheklash yoki Uchrashuvni boshqa stadionda o'tkazish ko'rinishidagi

intizomiy jazo chorasi qo'llangan subyektning iltimosnomasiga ko'ra, shikoyat arizasi bo'yicha yakuniy qaror chiqarilguniga qadar intizomiy jazo chorasini o'tash to'xtatib turilishi mumkin.

Bunda, Qo'mita Raisi yoki Rais o'rinbosari tegishli sport intizomiy jazo chorasi amalga oshirilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishi va ushbu iltimosnoma kelib tushgan sanadan boshlab uch ish kuni davomida bu borada qaror qabul qilishi shart.

49-modda **Qarorni e'lon qilish**

1. Qo'mita qarorlari tegishli tartibda Liga rasmiy saytida e'lon qilinadi.
2. Qo'mita muayyan qarorlar e'lon qilinmasligi haqidagi qarorni qabul qilishga haqlidir.

50-modda **Qarorlarni tegishli shaxslarga jo'natish**

1. Qaror tegishli tartibda Liga rasmiy saytida e'lon qilinmasa, uning ko'chirmasi qabul qilingan sanadan boshlab uch kalendar kuni ichida Qo'mita kotibi tomonidan intizomiy jazo chorasi qo'llangan subyekt a'zosi bo'lgan Klubga jo'natiladi.

Qo'mita qarori boshqa manfaatdor subyektlarga ularning talabiga ko'ra taqdim etilishi mumkin.

2. Qo'mita qaroridan ko'chirma yoki qarorning to'liq matni tegishli subyektga elektron pochta orqali yuboriladi.

3. Qo'mita qarori yoki uning to'liq matnini jo'natish uchun javobgarlik Qo'mita kotibi zimmasiga yuklatiladi. Jismoniy shaxslar bo'yicha qabul qilingan qarorlar Musobaqada ushbu shaxsni ro'yxatdan o'tkazgan Klubga yuboriladi.

4. Qo'mita qarorining to'liq matnida mazkur Kodeksning 47-moddasi 1-bandida sanab o'tilganlardan tashqari o'z tarkibiga Qo'mita tomonidan belgilangan va uni asoslash uchun kiritilgan holatlar, dalillar, shuningdek, qo'mita tomonidan rad etilgan vajlar bo'yicha asoslovchi qism qo'shilishi mumkin.

10-bob **Qo'mita qarorlari ustidan shikoyat berish**

51-modda **Apellyatsiya shikoyati berish huquqi**

1. Qo'mita qarori ustidan shikoyat berishga o'ziga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llangan subyekt, shuningdek, ushbu qaror bevosita manfaatlariga daxl qilgan boshqa subyekt haqlidir.

2. Qo'mita qarorlari yuzasidan apellyatsiya shikoyati O'FA Tartib-intizom qo'mitasiga mazkur Kodeksda ko'rsatilgan muddatda taqdim etiladi.

Bunda, apellyatsiya shikoyati ko'rib chiqilishi uchun subyekt shikoyat yozilgan kundan keyingi ikki ish kuni ichida Liga hisob raqamiga 10 000 000 (o'n million) so'm miqdorida to'lov amalga oshirishi lozim. Apellyatsiya shikoyati to'liq yoki qisman qanoatlantirilgan taqdirda, mazkur summa to'laligicha subyektga qaytariladi. Aks holda, to'lov summasi qaytarilmaydi.



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

II bo'lim

MAXSUS QISM

11-bob

Uchrashuv davomida yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar

52-modda

O'yin qoidalarining buzilishi

1. O'yin qoidalarining buzilishi O'yin qoidalariga muvofiq Hakam tomonidan ogohlantirish yoki maydondan chetlatish bilan jazolanadi.

53-modda

Klubning Uchrashuvga kelmasligi

1. Klubning tegishli Uchrashuvga asosli sababsiz kelmasligi texnik mag'lubiyat yozish va mazkur Kodeksga Ilovaning 1-bandida ko'zda tutilgan jarima intizomiy jazo chorasini qo'llash bilan jazolanadi.

2. Klubning bir Musobaqa doirasidagi bir nechta Uchrashuvga asosli sababsiz kelmasligi shu Musobaqa ishtirokchilari safidan chetlatish va mazkur Kodeksga Ilovaning 1-bandida ko'zda tutilgan jarima intizomiy chorasini qo'llash bilan jazolanadi.

54-modda

Uchrashuv boshlanishining kechiktirilishi

1. Klub belgilangan vaqtda Uchrashuvga yetib kela olmasa, lekin Uchrashuvni boshlash va yakunlash imkoniyati mavjud bo'lsa, Komissar tegishli Musobaqa Reglamentiga tayanib qaror chiqaradi.

2. Uchrashuvning boshlanish vaqti Klubning aybi bilan kechiktirilsa, Klub mazkur Kodeksga Ilovaning 2-bandida ko'zda tutilgan jarima intizomiy chorasi bilan jazolanadi.

3. Agar bunday kechikishlar bir necha marta qaytarilsa, har bir kechikish uchun jarima miqdori mazkur Kodeksga Ilovaning 2-bandiga muvofiq ko'payib boradi.

4. Klubning aybi bilan Uchrashuv boshlanishining kechiktirilishi Uchrashuvning translyatsiya qilinishiga putur yetkazsa, Klub mazkur Kodeksga Ilovaning 3-bandida ko'zda tutilgan jarima intizomiy chorasi bilan jazolanadi.

55-modda

Uchrashuvni davom ettirishdan bosh tortish

1. Uchrashuvni davom ettirishdan bosh tortish, ya'ni, Hakam ruxsatisiz maydonni tark etib, Uchrashuvni davom ettirishni rad etish texnik mag'lubiyat va mazkur Kodeksga Ilovaning 4-bandida ko'zda tutilgan jarima intizomiy chorasini qo'llash bilan jazolanadi.

Bunday qoidabuzarlikni bir mavsum davomida qaytda takrorlagan Klub Musobaqa ishtirokchilari safidan chiqariladi.

56-modda

Maydonda begona shaxslar va hayvonlarning paydo bo'lishi

1. O'yin qoidalariga ko'ra maydonda bo'lishi mumkin bo'lmagan shaxslarning Hakam ruxsatisiz maydonga tushishi mazkur Kodeksga Ilovaning 5-bandida ko'zda tutilgan jarima intizomiy chorasini qo'llash bilan jazolanadi. Bir necha nafar begona shaxslarning yuqoridagi tarzda maydonga tushishi mazkur Kodeksga Ilovaning 6-bandida ko'zda tutilgan yanada qat'iyroq intizomiy jazo choralari bilan jazolanadi.

Bunda, maydonga ruxsatsiz tushgan shaxs biror Klubga tegishli ekani aniqlansa, jarima shu Klubga nisbatan qo'llanadi. Ushbu shaxs Klublardan biriga mansub bo'lmasa, jarima intizomiy chorasi mezbon Klubga nisbatan qo'llanadi. Markazlashtirilgan tartibda o'tkaziladigan Uchrashuv bundan mustasno.

2. Maydonga hayvonlar tushgani uchun (qushlar bundan mustasno) mezbon Klubga mazkur Kodeksga Ilovaning 7-bandida ko'zda tutilgan jarima intizomiy chorasi qo'llanadi. Markazlashtirilgan tartibda o'tkaziladigan Uchrashuv bundan mustasno.

57-modda

Texnik zona chegaralaridan tashqariga chiqish

1. Uchrashuv vaqtida futbolchining Hakam ruxsatisiz Texnik zona hududidan tashqariga chiqishi mazkur Kodeksga Ilovaning 8-bandida ko'zda tutilgan jarima bilan jazolanadi.

58-modda

Bosh murabbiy vazifasi Klubning boshqa Rasmiy shaxsi tomonidan bajarilishi

1. Bosh murabbiy vazifasini Klubning boshqa Rasmiy shaxsi tomonidan tizimli va ochiqdan ochiq bajarilishi, shuningdek, Klub tomonidan ushbu shaxsning bosh murabbiy vazifasini bajaruvchi shaxs sifatida Reglament talablariga zid ravishda taqdim etilishi (ijtimoiy tarmoqlarda, Klubning rasmiy saytida va hokazo) mazkur Kodeksga Ilovaning 9-bandida ko'zda tutilgan jarima bilan jazolanadi.

2. Klub Rasmiy shaxsiga nisbatan mazkur moddaning 1-qismida ko'zda tutilgan intizomiy jazo chorasi takroran qo'llansa, Qo'mita ushbu shaxsga nisbatan uch Uchrashuvdan diskvalifikatsiya ko'rinishidagi intizomiy jazo chorasini qo'llashga haqli bo'ladi.

59-modda

Texnik zonada tamaki chekish

1. Subyektning Uchrashuv davomida Texnik zonada tamaki chekishi mazkur Kodeksga llovaning 10-bandida ko'zda tutilgan jarima bilan jazolanadi.

2. Mazkur moddaning 1-bandidagi holat yana takrorlansa, Qo'mita ushbu shaxsni ikki Uchrashuvdan diskvalifikatsiya qilish ko'rinishidagi intizomiy jazo chorasini qo'llashga haqli bo'ladi.

60-modda

Texnik zonada begona shaxslarning bo'lishi

1. Texnik zonada begona shaxslarning, ya'ni, Uchrashuv qaydnomasiga kiritilmagan yoki Komissar tomonidan ruxsat etilmagan shaxslarning bo'lishi mazkur Kodeksga llovaning 11-bandida ko'zda tutilgan jarima bilan jazolanadi.

61-modda

Uchrashuv davomida maydonda kechayotgan hodisalarga aralashish

1. Maydon tashqarisidagi subyektning Uchrashuv davomida maydonda kechayotgan hodisalarga ataylab aralashishi mazkur Kodeksga llovaning 12-bandida ko'zda tutilgan jarima bilan jazolanadi.

62-modda

Uchrashuv davomida futbolchilar va boshqa shaxslarga qarshi sodir etilgan qoidabuzarliklar

1. Yaqqol gol urish imkoniyatidan mahrum qilish sifatida baholanuvchi to'pni ataylab qo'lda to'xtatish va raqib futbolchisini yaqqol gol urish imkoniyatidan O'yin qoidalarini buzgan holda mahrum qilish futbolchiga qizil kartochka ko'rsatish va bitta Uchrashuvdan diskvalifikatsiya qilish bilan jazolanadi.

2. To'p uchun kurashda raqibni turtish, zarba berish, uni qo'pollik bilan to'xtatish, jarohat yetkazish va O'yin qoidalarida tavsiflangan boshqa qoidabuzarliklar futbolchiga to'g'ridan to'g'ri qizil kartochka ko'rsatilishi va ikkitadan beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya qilish bilan jazolanadi.

3. Subyekt Uchrashuv davomida agressiv harakatlari, ya'ni, raqibga yoki boshqa shaxsga nisbatan to'pni egallashga qaratilmagan jiddiy kuch ishlatishi yoki o'ta qo'pol harakatlari, shu jumladan, uni turtishi, unga zarba berishi, buyumlar yoki to'pni uloqtirishi va agressiv xulq-atvorning boshqa holatlarini namoyon qilishi to'g'ridan to'g'ri qizil kartochka ko'rsatilishi va ikkitadan beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya qilish bilan jazolanadi.

Agar mazkur moddada ko'rsatilgan qoidabuzarlik Uchrashuvdan keyin sodir etilgan bo'lsa va aybdor shaxs Hakam tomonidan maydondan chetlatilmagan bo'lsa, u ikkitadan beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya qilish bilan jazolanadi.

4. Subyektning Uchrashuv davomida raqib vakili va boshqa shaxsga tupurishi ikkitadan beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya qilish ko'rinishidagi intizomiy jazo chorasi bilan jazolanadi.

5. Subyektning raqib vakillari va boshqa shaxslarga nisbatan haqoratli harakatlari, ya'ni, haqoratli so'zlar va iboralarni ishlatishi, shuningdek, haqoratli imo-ishoralarni namoyish etishi ikkitadan beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya bilan jazolanadi.

6. Futbolchi tomonidan, ushbu moddaning boshqa qismlarida qayd etilmagan "Fair Play" prinsiplarining qo'pol ravishda buzilishi bittadan beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya bilan jazolanadi.

7. Subyekt tomonidan Uchrashuv davomida raqib futbolchisiga nisbatan jismoniy kuch ishlatish yo'li bilan ta'sir o'tkazishga urinish uchtdan beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya bilan jazolanadi.

8. Qo'mita mazkur moddada tavsiflangan qoidabuzarliklar uchun beshtagacha Uchrashuvga chetlatishni yetarli emas deb topsa, ish O'FA Tartib-intizom qo'mitasiga oshiriladi.

Qo'mita ushbu moddadagi qoidabuzarliklar takroran sodir etilgan taqdirda, og'irroq intizomiy sanksiya qo'llashga haqli. Shuningdek, qoidabuzarlikni sodir etgan shaxsni muayyan Uchrashuvga chetlatishdan tashqari, unga nisbatan jarima intizomiy jazo chorasi ham qo'llanishi mumkin.

63-modda

Uchrashuv rasmiylariga nisbatan sodir etilgan qoidabuzarlik

1. Subyekt tomonidan Uchrashuv davomida Uchrashuv rasmiylariga nisbatan haqoratli harakatlar, ya'ni, haqoratli so'zlar va iboralar ishlatilishi, shuningdek, haqoratli imo-ishoralar namoyish etilishi ikkitadan beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya bilan jazolanadi.

2. Subyektning Uchrashuv davomida Uchrashuv rasmiylariga tupurishi beshta Uchrashuvdan diskvalifikatsiya qilish ko'rinishidagi intizomiy jazo choralari bilan jazolanadi.

3. Subyektning Uchrashuv davomida Uchrashuv rasmiylarini ataylab turtishi yoki to'pni ataylab u tomonga tepishi beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya qilish ko'rinishidagi intizomiy jazo choralari bilan jazolanadi.

4. Subyektning Uchrashuv davomida Uchrashuv rasmiylariga jismoniy kuch ishlatgan holda ta'sir o'tkazishga urinishi beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya bilan jazolanadi.

5. Qo'mita mazkur moddada tavsiflangan qoidabuzarliklar uchun beshtagacha Uchrashuvga chetlatishni yetarli emas deb topsa, ish O'FA Tartib-intizom qo'mitasiga oshiriladi.

Qo'mita ushbu moddadagi qoidabuzarliklar takroran sodir etilgan taqdirda, og'irroq intizomiy sanksiya qo'llashga haqli. Shuningdek, qoidabuzarlikni sodir etgan shaxsni muayyan Uchrashuvga chetlatishdan tashqari, unga nisbatan jarima intizomiy jazo chorasi ham qo'llanishi mumkin.

64-modda

Sportchiga xos bo'lmagan xulq-atvor

1. Subyektning Uchrashuv davomida mazkur Kodeksda qayd etilmagan sportchiga xos bo'lmagan xulq-atvori mazkur Kodeksga ilovaning 21-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

2. Uchrashuvda intizom va "Fair Play" tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida, o'yin vaqtini sun'iy ravishda cho'zish, Hakam qaroriga nisbatan norozilik bildirib tortishish yoki sport odobiga zid munosabat ko'rsatish, shuningdek, Hakamni chalg'itish, jumladan, simulyasiya qilish oqibatida sariq kartochka olgan futbolchi yoki murabbiyga nisbatan jarima intizomiy jazo chorasi qo'llanadi.

65-modda

Mushtlashuv

1. Mushtlashuv, ya'ni, futbolchi va Rasmiy shaxs hisoblangan ikki kishining Uchrashuv davomida jismoniy kuch ishlatib bir-biriga zarba berishi beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya bilan jazolanadi.

2. Ommaviy mushtlashuv, ya'ni, futbolchilar va Rasmiy shaxslar hisoblangan ikki nafardan ko'p shaxs ishtirokidagi mushtlashuv beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya qilish bilan jazolanadi.

Mushtlashuvni oldini olishga, boshqalarni to'sishga yoki mushtlashuv ishtirokchilarini ajratishga uringan shaxsga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilmaydi.

66-modda

Jamoaviy noma'qul xulq-atvor

1. Jamoaviy noma'qul xulq-atvor, ya'ni, bir Uchrashuv davomida Klub futbolchilari va Rasmiy shaxslardan olti va undan ko'proq kishiga sariq kartochka ko'rsatilishi, bir Uchrashuv davomida Klub futbolchilari va Rasmiy shaxslaridan ikki va undan ko'proq kishining maydondan chetlashtirilishi holatida Klub mazkur Kodeksga ilovaning 23-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

67-modda

Musobaqa Reglamenti talablariga xilof ravishda Uchrashuvda ishtirok etish

1. Futbolchining Uchrashuvda Musobaqa Reglamenti hamda "Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha reglament" talablariga xilof ravishda ishtirok etishi Klubga texnik mag'lubiyat yozish va mazkur Kodeksga llovaning 24-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

68-modda

Provokatsiya orqali tomoshabinlarni nojo'ya harakatlarga undash

1. Subyektning stadionlarda tartibsizliklar keltirib chiqarishga qaratilgan xatti-harakatlari bitta Uchrashuvdan diskvalifikatsiya va/yoki mazkur Kodeksga llovaning 25-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

2. Subyektning stadionlarda tartibsizliklar keltirib chiqargan xatti-harakatlari beshtagacha Uchrashuvdan diskvalifikatsiya va/yoki mazkur Kodeksga llovaning 26-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

69-modda

Jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlamaslik

1. Tomoshabinlar jamoat tartibini buzishiga, stadionda tartibsizliklar kelib chiqishiga yoki stadiondagi odamlar xavfsizligiga tahdid solinishiga sababchi bo'lgan jamoat tartibi va xavfsizlikning Uchrashuv mezboni tomonidan ta'minlanmasligi mazkur Kodeksga llovaning 27-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi. Tartibsizliklar jiddiy oqibatlarni keltirib chiqargan holatlarda esa beshtagacha Uchrashuv davomida tomoshabinlarning stadion sektorlariga kirishiga yo'l qo'ymaslik yoki Uchrashuvning boshqa stadionda o'tkazilishi ko'rinishidagi intizomiy jazo choralari bilan jazolanadi.

Og'irroq oqibatlarga olib kelgan tartibsizliklar holatida ish O'FA Tartib-intizom qo'mitasiga oshiriladi.

70-modda

Uchrashuvning to'xtatilishi

1. Begona shaxslarning Uchrashuvning kechishiga aralashuvi oqibatida Uchrashuv to'xtatilsa, shu jumladan, ommaviy tartibsizliklar sodir bo'lsa, mazkur Kodeksga llovaning 28-bandiga muvofiq jarima intizomiy chorasi qo'llaniladi. Tartibsizliklar jiddiy oqibatlarni keltirib chiqargan holatlar esa beshtagacha Uchrashuv davomida tomoshabinlarning stadion sektorlariga kirishiga yo'l qo'ymaslik, aybdor Klubga mag'lubiyat yozilish yoki beshtagacha Uchrashuvni boshqa stadionda o'tkazilishi ko'rinishidagi intizomiy jazo choralari bilan jazolanadi.

Uchrashuv kechishiga aralashgan shaxslar qaysi Klubga mansubligidan kelib chiqib, mazkur moddada qaysi Klubning aybdor ekanligiga aniqlik kiritiladi. Uchrashuv kechishiga aralashgan shaxslarning qaysi Klubga mansubligi aniqlanmasa, ushbu qoidabuzarlik uchun javobgarlik mezbon zimmasiga yuklatiladi.

2. Subyektning Uchrashuv to'xtatilishiga sabab bo'lgan intizomsizligi oqibatida aybdor Klubga mag'lubiyat yoziladi va mazkur Kodeksga Ilovaning 29-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

3. Ikki Klub a'zolarining Uchrashuv to'xtatilishiga sabab bo'lgan intizomsizliklari har ikki Klubga mag'lubiyat yozilishi va mazkur Kodeksga Ilovaning 29-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

12-bob

Uchrashuvni tashkil qilish talablari va Kodeks qoidalarining buzilishi

71-modda

Uchrashuv boshlanadigan vaqt to'g'risida ma'lumot taqdim etish muddatlariga rioya qilmaslik

1. Klub tomonidan Uchrashuv boshlanadigan vaqt to'g'risida ma'lumot taqdim etish bo'yicha Reglamentda belgilangan muddatlarga rioya qilmaslik, mazkur Kodeksga Ilovaning 30-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

72-modda

Tashkiliy yig'ilishda qatnashmaslik

1. Komissar tomonidan ishtiroki majburiy deb belgilangan Klub vakilining Uchrashuvdan avval o'tkaziladigan tashkiliy yig'ilishda qatnashmasligi Kodeksga Ilovaning 31-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

73-modda

Uchrashuvni o'tkazish uchun sharoitlarni ta'minlamaslik

1. Mezbon Klub Reglament yoki O'yin qoidalariga muvofiq, Uchrashuvni to'laqonli o'tkazish uchun barcha sharoitlarni ta'minlamasligi mazkur Kodeksga Ilovaning 32-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

2. Mezbon Klubning Uchrashuv o'tkazish uchun Reglament yoki O'yin qoidalarida belgilangan zarur sharoitlarni ataylab ta'minlamasligi, Komissarning Uchrashuvni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha vazifalarini bajarish bilan bog'liq talablari va ko'rsatmalarini bajarmaslik, mazkur Kodeksga Ilovaning 33-bandiga muvofiq jarima va/yoki uchta Uchrashuvgacha muddat davomida Uchrashuvlarni boshqa stadionda o'tkazish bilan jazolanadi.

3. Mezbon Klubning Reglament yoki O'yin qoidalarida belgilangan zarur sharoitlarni ta'minlamasligi oqibatida Uchrashuv boshlanish vaqti kechiksa yoki Uchrashuv to'xtatilishiga sabab bo'lsa, mazkur Kodeksga Ilovaning 33-bandiga muvofiq jarima va/yoki texnik mag'lubiyat yozish jazosi qo'llaniladi.

74-modda

Matbuot anjumani va majburiy flesh-intervyularda qatnashmaslik

1. Subyektning Reglamentda ko'zda tutilgan majburiy matbuot anjumani, flesh-intervyularda qatnashmasligi Kodeksga llovaning 34-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

75-modda

Futbolchining mikst-zonadan o'tishini ta'minlamaslik

1. Reglament asosida futbolchi yoki bosh murabbiyning stadionni maxsus mikst-zona orqali tark etmasligi mazkur Kodeksga llovaning 35-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

76-modda

Videoyozuvni taqdim etmaslik

1. Hakam qarori ustidan shikoyat berilgan holatlarda Reglamentga ko'ra videoyozuvning Klub tomonidan Ligaga taqdim etilmasligi mazkur Kodeksga llovaning 36-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

77-modda

Reglament talablarini bajarmaslikning boshqa holatlari

1. Subyekt tomonidan sodir etilgan, Reglament va Liga rahbar organlarining boshqa hujjatlarida belgilangan, biroq mazkur Kodeks bilan qamrab olinmagan qoidabuzarliklar mazkur Kodeksga llovaning 37-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

13-bob

Uchrashuv tomoshabinlari tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar

78-modda

Tomoshabinlarning haqoratli so'zlar va iboralarni baland ovozda birgalikda baqirishi

1. Uchrashuv davomida tomoshabinlarning stadionda haqoratli so'zlar va iboralarni baland ovozda birgalikda baqirishi (ommaviy tarzda qaytarishi) mazkur Kodeksga llovaning 38-bandiga muvofiq jarima va/yoki bitta Uchrashuvda tomoshabinlarni stadion sektorlariga kirishini cheklash bilan jazolanadi.

79-modda

Tomoshabinlarning tribunalarga, maydonga va maydonga tutash hududga predmetlarni otishi

1. Uchrashuv davomida tomoshabinlarning tribunalarga, maydonga va maydonga tutash hududga predmetlarni otishi mazkur Kodeksga llovaning 39-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

2. Agar tomoshabinlar tomonidan tribunalarga, maydonga va maydonga tutash hududga otilgan predmetlar maydon va maydon atrofidagi shaxslarga tegsa, Klub Kodeksga llovaning 39-bandiga muvofiq jarima va/yoki uchta Uchrashuv gacha muddatga tomoshabinlarni stadion sektorlariga kiritmaslik va/yoki uchta Uchrashuv gacha muddatga Uchrashuvlarni boshqa stadionda o'tkazish bilan jazolanadi.

Ushbu moddada aybdor Klub predmetlarni otgan shaxslarning qaysi Klubga mansubligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Agar predmetlarni otgan shaxslar qaysi Klubga mansubligi aniqlanmasa, ushbu qoidabuzarlik uchun javobgarlik mezbon zimmasiga yuklanadi. Agar tomoshabinlar tomonidan otilgan predmet stadiondagi odamlarga zarar yetkazmasligi va Uchrashuv kechishiga ta'sir ko'rsatmasligi avvaldan ma'lum bo'lsa, ushbu moddada ko'zda tutilgan intizomiy jazo chorasi qo'llanmaydi.

80-modda

Tomoshabinlarning pirotexnika buyumlarini ishlatishi va otishi

1. Uchrashuv davomida tomoshabinlarning tribunalarga, maydonga va maydonga tutash hududga otmasdan pirotexnika buyumlarini ishlatishi og'ir oqibatlariga olib kelsa, Klub mazkur Kodeksga llovaning 40-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanishi mumkin.

2. Uchrashuv davomida tomoshabinlarning pirotexnika buyumlarini tribunalarga, maydonga va maydonga tutash hududga otgan holda ishlatishi holatida Klub mazkur Kodeksga llovaning 41-bandiga muvofiq jarima bilan jazolanadi.

3. Agar tomoshabinlar tomonidan tribunalarga, maydonga va maydonga tutash hududga otilgan pirotexnika buyumlari biror shaxsga tegsa, Klub mazkur Kodeksga llovaning 41-bandiga muvofiq jarima va/yoki uchta Uchrashuv gacha muddatga tomoshabinlarni stadion sektorlariga kiritmaslik va/yoki uchta Uchrashuv gacha muddatga Uchrashuvlarni boshqa stadionda o'tkazish bilan jazolanadi.

Ushbu moddada aybdor Klub predmetlarni otgan shaxslarning qaysi Klubga mansubligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Agar predmetlarni otgan shaxslar qaysi Klubga mansubligi aniqlanmasa, ushbu qoidabuzarlik uchun javobgarlik mezbon zimmasiga yuklanadi.

81-modda

Stadiondagi tartibsizliklar

1. Uchrashuv davomida stadionda mushtlashuvlar, zo'ravonlik, o't qo'yish, qo'lostidagi buyumlardan foydalangan holda stadion mol-mulkiga shikast yetkazish kabi harakatlar Uchrashuv to'xtatilishiga sabab bo'lmasa, aybdor Klub mazkur Kodeksga llovaning 42-bandiga muvofiq jarima va/yoki uchta Uchrashuv gacha muddatga tomoshabinlarni stadion sektorlariga kiritmaslik va/yoki uchta Uchrashuv gacha muddatga Uchrashuvlarni boshqa stadionda o'tkazish bilan jazolanadi.

Ushbu moddada aybdor Klub tartibsizliklarda qatnashgan shaxslar qaysi Klubga mansubligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Agar tartibsizliklarda qatnashgan shaxslar

qaysi Klubga mansubligi aniqlanmasa, ushbu qoidabuzarlik uchun javobgarlik mezbon zimmasiga yuklanadi.

82-modda

Tomoshabinlar tomonidan qonunchilik hujjatlarida taqiqlangan, haqoratli tusga ega vizual tashviqot vositalari namoyish etilishi

1. Stadionda tomoshabinlar tomonidan qonunchilik hujjatlarida taqiqlangan, haqoratli tusga ega yoki haqoratli so'zlar yozilgan banner, plakat kabi vizual tashviqot vositalarini ommaviy tarzda namoyish etilishi mazkur Kodeksga illovaning 43-bandiga muvofiq jarima va/yoki uchta Uchrashuv gacha tomoshabinlarni stadion sektorlariga kiritilishini cheklash bilan jazolanadi.

14-bob

Futbolni boshqarish tartibiga qarshi qoidabuzarliklar

83-modda

Hujjatlarni qalbakilashtirish va qalbaki hujjatlardan foydalanish

1. Ishonchsiz, noto'g'ri ma'lumotlarni ataylab taqdim etish, shuningdek, Ligaga taqdim etiladigan hujjatlarni qalbakilashtirish, futbol bilan bog'liq har qanday faoliyatni amalga oshirishda qalbaki ekani avvaldan ma'lum bo'lgan hujjatdan foydalanish mazkur Kodeksga illovaning 47-bandiga muvofiq jarima bilan ham jazolanishi mumkin.

15-bob

Shikoyatlarni ko'rib chiqish

84-modda

Nizolarni ko'rib chiqish mexanizmi

1. Shikoyat Uchrashuvda qatnashgan Klub tomonidan Uchrashuv davomida O'yin qoidalariga va Reglamentga rioya qilinmasligi bilan bog'liq faktlar bo'yicha beriladi. Shikoyat berish va shikoyat berilishiga sabab bo'lgan faktlarning qisqacha bayoni Uchrashuv qaydnomasida aks ettiriladi. Shikoyat berilishiga sababchi bo'lgan faktlarning batafsil bayoni Uchrashuv yakunlanganidan keyin 24 soat mobaynida Ligaga pochta yoki elektron pochta orqali yuboriladi.

2. O'yin qoidalari bo'yicha shikoyatlar Uchrashuv boshlanishidan bir soat avval Hakam va Nazoratchiga yozma e'tiroz berish shartida beriladi.

3. Shikoyatni ko'rib chiqish Qo'mita tomonidan mazkur Kodeks va Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Shikoyat berayotgan Klub Uchrashuv o'tkazilgan sanadan keyin 48 soat mobaynida shikoyatni ko'rib chiqish uchun Liga hisob raqamiga 10 000 000 (o'n million) so'm miqdorida to'lov o'tkazishi lozim. Aks holda shikoyat ko'rib chiqilmaydi.

Shikoyatni ko'rib chiqish uchun to'lov quyidagi hollarda qaytarib beriladi:

- shikoyat to'liq yoki qisman qanoatlantirilsa;
- shikoyatni bergan Klub Qo'mita qaror qabul qilguniga qadar shikoyatni qaytarib olsa.

5. Shikoyat quyidagi holatlarda ko'rib chiqilmaydi:

- o'z vaqtida berilmaganda;
- Uchrashuv qaydnomasida aks ettirilmaganda;
- hakamlik sifati bo'yicha berilganda;
- ko'rib chiqish uchun to'lov qilinmagan yoki kechikib to'langan holatlarda.

6. Shikoyat matnida uni berish uchun asos bo'lib xizmat qilgan sabablar ko'rsatilishi, shuningdek, Reglament buzilishi va O'yin qoidalariga rioya qilmaslik bilan bog'liq holatlar bayon etilishi zarur.

7. Shikoyat kiritilgach, Komissar bu haqda ikkinchi tomonni Uchrashuv qaydnomasida tegishli yozuv kiritilgani to'g'risida xabardor qiladi.

8. Shikoyat barcha materiallar kelib tushganidan keyin uch kalendar kunidan kechiktirmay, ko'rib chiqiladi.

9. Shikoyat berilishi bilan bog'liq materiallar Klub tomonidan Ligaga Uchrashuv yakunlanganidan keyingi qirq sakkiz soat ichida taqdim etiladi.

16-bob **Yakuniy qoidalar**

85-modda **Yakuniy qoidalar**

1. Mazkur Kodeks bilan qamrab olinmagan holatlar shunga o'xshash munosabatlarni tartibga solishi mumkin bo'lgan va ularning mohiyatiga zid bo'lmagan Liga yoki xalqaro sport faoliyatini tartibga soluvchi tegishli hujjatlari bilan tavsiflanadi.

2. Mazkur moddaning 1-qismidagi analogiyadan ham foydalanish imkoni bo'lmasa, Qo'mita qarori halollik, oqillik, tenglik va adolatlilik prinsiplaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

3. Biror shaxs tomonidan mazkur Kodeksda to'g'ridan to'g'ri ko'zda tutilmagan, lekin o'z mohiyatiga ko'ra qoidabuzarlikka o'xshash va mazkur Kodeksga ko'ra intizomiy jazo choralari bilan jazolash ko'zda tutilgan harakat sodir etilsa, Qo'mita qoidalar analogiyasi, halollik, oqillik, tenglik va adolatlilik prinsiplariga asolangan holda, ushbu shaxsga nisbatan mazkur Kodeksda ko'zda tutilgan intizomiy jazo choralaridan birini qo'llashga haqli hisoblanadi.

86-modda

Kodeksning rasmiy talqin qilinishi

1. Nizoli masalalar yuzaga kelgan taqdirda, mazkur Kodeksning rasmiy talqini Liga Ijroiya qo'mitasi tomonidan sharhlanadi.

87-modda**Mazkur Kodeksni tasdiqlash va unga o'zgartishlar kiritish**

1. Mazkur Kodeksni tasdiqlash va unga o'zgartishlar kiritish Liga Ijroiya qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

2026